

Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyash mazmuni.

**JDPI maktabgacha ta'lim metodikasi
kafedrası dots.v/b G.Kushakova
3-kurs talabasi I.Abdug'aniyeva**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha bolalarning axloqiy tarbiyash mazmuni bolalarda tarbiya jarayonida axloqiy tuyg'ular va ma'naviy tasavvurlar shakllanish haqida fikrlar bildirilgan.

Аннотация: В статье рассматривается содержание нравственного воспитания дошкольников и формирование у детей нравственных чувств и духовных представлений в процессе воспитания.

Annotation: This article discusses the content of moral education of preschool children and the formation of moral feelings and spiritual perceptions in children in the process of upbringing.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh, bolalar, tarbiya, axloq, tuyg'u, ma'naviy, tasavvur

Ключевые слова: дошкольное учреждение, дети, воспитание, этика, эмоции, духовность, воображение.

Keywords: Preschool, children, upbringing, ethics, emotion, spirituality, imagination

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tarbiya jarayonida axloqiy tuyg'ular va ma'naviy tasavvurlar shakllanishda davom etadi. Bunda bolalarning tuyg'ularini rivojlantirish va boyitishga, ularni boshqarish usullarini shakllantirishga katta e'tibor beriladi. Bu yoshda axloqiy tuyg'ular tarbiyalanadi, mazkur tuyg'ular bolalarning o'z atrofdagi odamlarga (kattalar, tengdoshlar va kichkintoylarga), mehnatga, tabiatga, muhim ijtimoiy xodisalarga, Vatanga munosabatlarini belgilaydi.

Shakllanayotgan xurmat tuyg'usida kattalarga munosabat ifodalanadi. Xurmat tuyg'usi bundan ilgarigi yosh guruhlarida bolalarning kattalarga mehr va muxabbatidan iborat xissiy asosda rivojlanadi. Maktabgacha yoshda bu tuyg'u ko'proq anglangan bo'lib, kattalar mehnat faoliyati ijtimoiy rolining ahamiyatini, ularning oliyjanob axloqiy fazilatlarini tushunishga asoslanadi. Tengdoshlarga nisbatan ijobiy xis tuyg'ular rivojlanishda davom etadi. Bolalar bilan o'zaro munosabatlarda jamoachilik, insonparvarlik tuyg'ulari asoslarini, bolalarning bir biriga do'stona muomalasi, mehribonlik, g'amxurlik, xamkorlikka, umumiy

maqsadlarga erishishga intilish, yordam berish ishtiyoqini rivojlantirish vazifasi qo'yiladi. Jamoatchilikni rivojlantirishda bolalar o'yini va mehnatida shakllanadigan burch va ma'suliyat tuyg'usining ilk shakllari katta rol o'ynaydi. Oliyjanob axloqiy tuyg'ular: vatanga muxabbat, boshqa millatga mansub kishilarga xurmat tuyg'ularining shakllanishi davom etadi. Ijtimoiy xayot xodisalari xaqidagi yorqin taasurotlar, bolalar mashg'ulotlarda, badiiy adabiyot, tasivriy san'at asarlari bilan tanishish paytida, amaliy faoliyatda qatnashib (umumxalq bayramlari, turli millat bolalari bilan do'stlashib va xokazo), mamlakatimiz xaqida qiziqarli bilimlar bilan to'ldirilgan ana shu tuyg'ularni rivojlantirish asosi bo'ladi. Tarbiyaning vazifasi axloqiy tuyg'ular ta'sirchanligini, axloqiy ishtiyoqlarga asoslanuvchi xatti xarakatlarga intilishni ta'minlashdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy xis tuyg'ulari axloqiy yurish turish bilan chambarchas birlikda shakllanadi.

Kattalarga xurmat tuyg'usining rivojlantirilishi bolalarning tevarak atrofdagi kishilarga munosabatida yurish turish madaniyatini tarbiyalash vazifasi bilan uzviy bog'langandir. Madaniy yurish turish odatlarining doirasi ancha kengayadi: bolalar jamoatchilik joylarida (transportda, ko'chada, kutubxonada va xokazo) muomalaning turli vaziyatlarida (tanish va notanish kishilar bilan) o'zlarini qanday tutish qoidalarini o'zlashtiradilar. Doimo odobli kattalarga va kichiklarga astoydil g'amxurlik qilishga tayyor turish, kattalar mehnati natijalariga, ularning faoliyatiga xurmat bilan munosabatda bo'lish odati tarbiyalanadi. Nutq madaniyatining, axloqiy fazilatlarning (rostgo'y, xalol, kamtar bo'lish) shakllanishi davom etadi. Maktabgacha kichik yoshdagi bola yurish turishini tarbiyalashning muhim vazifasi – tengdoshlar bilan jamoa o'zaro munosabatlarini shakllantirishdir. Jamoa o'zaro munosabatlari o'zaro bog'langan tarkibiy qismlar majmuidir. Ularning eng muhimlari – dilkash va tengdoshlarga insonparvarlarcha munosabatd bo'lish, faoliyatni jamoa bo'lib rejalashtirish ko'nikmasi, uyushqoqlik va muomala madaniyatidir. Shu munosabat bilan jamoa o'zaro munosabatlarini shakllantirish

vazifasining xal etilishi bolalar jamoasida barqaror hayrihohlik munosabatlarini, muomala madaniyatini, uyushqoq yurish turishni tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish bilan bog'langandir.

Muomala madaniyatini tarbiyalash bolalarning tengdoshlarga munosabatda odob qoidalarini o'zlashtirishni davom ettirishlarini xamda birgalikda faoliyat – o'yin, mehnat, o'quv faoliyati madaniyatini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Uyushgan yurish turishni tarbiyalash maktabgacha yoshda bolalarda yurish turish qoidalarini ongli bajarish, guruhda o'rnatilgan umumiy talablarga bo'ysunish, axillik bilan xarakat qilish, qo'yilgan maqsadga birgalikda erishish ko'nikmasini shakllantirishni taqazo qiladi. Ayni vaqtda katta guruxlarda mustaqillikni tarbiyalash davom ettiriladi, bu narsa 6-7 yashar bola yurish turishining o'ziga xos xususiyati bo'lib qolishi kerak. Pedagogning e'tibori faoliyatning xar xil turlarida bolalar tashabbusi, o'zini o'zi tashkil qilishi xamda o'zini o'zi nazorat qilishini, erkin, irodaviy yurish turishini rivojlantirishga qaratiladi.

Axloqiy yurish turish mexanizmlarining shakllanishi ijtimoiy tuyg'ular va ongning faol ishtirokida ro'y beradi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda axloqiy tasavvurlarni shakllantirishga katta ahamiyat beriladi. Axloqiy tasavvurlarni o'zlashtirish bolaga yurish turish mazmunini anglab olishda, talablar va qoidani bajarish maqsadga muvofiq va zarur ekanligini tushunishda ko'maklashadi, yurish turishning axloqiy baholari va sabablarini shakllantiradi. Ta'lim va tarbiya jarayonida 6-7 yashar bolalar axloqiy tasavvurlarning ancha keng doirasini o'zlashtiradilar. Jamiyatdagi yurish turish normalari va qoidalari haqidagi, insonning oliyjanob ma'naviy fazilatlarini (xalollik, kamtarlik, dovyuraklik) haqidagi bilimlar shular jumlasiga kiradi. Ijtimoiy hayot xodisalari haqidagi mehnat ahli to'g'risidagi tasavvurlar kengayadi.

Ana shu bilimlar asosida vatanparvarlik, mehnatkashlarga, boshqa xalqlarga hurmat tuyg'usini tarbiyalash davom ettiriladi. Umuman maktabgacha katta

yoshdagi bolalarning chuqurroq va to'laroq axloqiy tasavvurlari bevosita shaxsiy tajriba doirasidan chiqib, bolalarda ijtimoiy voqyelikka to'g'ri munosabatni shakllantirish asosiga aylanadi. Bolalarning birgalikda o'tkaziladigan jamoa turmush tarzi axloqiy tarbiya vazifalarini xal etishning muhim shartidir. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning birgalikdagi turmush tarzini tashkil etishda axloqiy tarbiya uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan bir qator o'zgarishlar ro'y beradi. Bolalarning o'z mavqiyelarini (bolalar maktabgacha ta'limsida tarbiyalanayotganlar ichida eng katta ekanliklarini) anglash ularni jipslashtiradi, o'z imkoniyatlariga ishonchni, o'z yurish turishlari uchun ma'sulitni oshiradi. Tarbiyachi bolalar ongidagi ana shu yangi xususiyatlarni rivojlantirishga va ana shu asosida katta gurux bolalarning yurish turish va faoliyatiga nisbatan yangi, yuksakroq talablarini bajarishni ta'minlashga, jamoachilik tuyg'usini rivojlantirishga, do'stona o'zaro munosabatlarni mustaxkamlashga, mustaqillik va uyushqoqlikni tarbiyalashga intiladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar turmush tarzining xususiyati ular faoliyatida rivojlanib borayotgan jamoa xususiyatidir. Bolalar jamoa o'zaro munosabatlarining xususiyatlari ularning bir birlariga do'stona intilishlarida, birgalashib o'ynash va mehnat qilish, umumiy maqsadga erishish, o'rtoqlarining manfaatlari bilan xisoblashish, ularga ko'maklashish, o'z vazifasiga mas'uliyat bilan qarash, umumiy ish va umumiy narsalar haqida g'amxurlik qilish ko'nikmasida namoyon bo'ladi (T.A.Markova, F.S.Levin-Shrichina, V.G.Nachayeva). jamoadagi yurish turish qoidalarining o'zlashtirilishi, tengdoshlar bilan birgalikdagi faoliyatda qatnanshish bolalarning o'zaro munosabatlarini shakllantiradi. Yurish turish qoidalarini bajarish maktabgacha ta'lim bolasidan vaziyatni va atrofdagilarning kayfiyatini anglab, bevosita xarakatlardan tiyilishni (o'zini bosish, sabr qilish, yon berishni) talab qiladi. Tarbiya mavzuidagi suhbatlar, adabiy qahramonlarning xatti harakatlarini va guruhdagi bolalarning yurish turishini muhokama qilish

maktabgacha katta yoshdagi bolalarga qoidalarning insonpavvarona mohiyatini, odamlarga yaxshi munosabatda bo'lish zarurligini anglab olishda ko'maklashadi.

Yurish turish qoidalarini amalda o'zlashtirish bolalar birgalikdagi faoliyatining har xil turlarida ro'y beradi. Katta guruhdagi bolalar birgalikdagi faoliyatining mazmuni o'rta guruhdagiga nisbatan murakkablashib, hamkorlikning yangi usullari: jamoa bo'lib rejalashtirish, vazifalar yoki rollarni, mehnatni zvenolar bo'yicha taqsimlash va shu singari usullar o'zlashtiriladi.

Bolalarga avvaliga kichik guruhda (2-3 bola), so'ngra esa ko'proq bolalar qatnashadigan guruhda hamkorlik qilish ko'nikmasini asta sekin shakllantirib borish, bolalarni birgalikdagi faoliyatni mustaqil tashkil etish usuliga, umumiy maqsadni belgilash, ishni (yoki o'yinni) rejalashtirish, ishni yoki o'yinni qatnashchilar o'rtasida taqsimlash haqida kelishib olish, natijaga erishish ko'nikmasiga maxsus o'rgatish kerak. Murabbiya bolalarning o'zaro munosabatlarini yo'naltirib turadi, o'zaro yordam, ahil, umumiy ishga doir faktlarni yuksak baholaydi, bu esa jamoani jipslashtirishda ko'maklashadi, guruhda hayrihohlik muhitini vujudga keltiradi.

Maktabgacha katta yoshda birgalikdagi turmush tarzida birinchi bor "ishchanlik" munosabatlarining, mas'uliyatli bog'lanishning kurtaklari shakllanadiki, bu kurtaklarni A.S.Makarenko jamoaning tashkil topishi va amal qilishi uchun eng muhim omillar jumlasiga kiritgan edi. Umumiy ishda, navbatchilikda qatnashish, alohida topshiriqlarni bajarish, maktabgacha ta'lim bolalarida birgalashib bo'ysunish tarkibiy qismlarini, o'zaro nazorat, topshirilgan ish natijalari uchun kattalar va guruhdagi o'rtoqlari oldida mas'uliyat sezish kurtaklarini rivojlantiradi. Mehnat faoliyatining ana shu ijtimoiy foydali yo'nalishi maktabgacha katta yoshdagi bolalar jamoa turmush tarzining yangi muhim jixatidir.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning birgalikdagi turmush tarzida ularning foydali faoliyatini tadbiiq etish doirasining kengayishi ham yangilikdir. Birinchi bor

maktabgacha ta'lim bolalarining faoliyati guruh doirasi bilan cheklanmay, bu doiradan chiqadi, ijtimoiy yo'nalish belgilari namoyon bo'ladi. Bolalar kichkintoylarga "otalik" qilish ishiga faol kirishadilar. Qo'g'irchoq kiyimini yuvish va o'yinchoqlarni tuzatish, kitoblarni asrash va konsert tayyorlash, sayr vaqtda xarakatli o'yinlarni tashkil etish, kichik guruh xonasini yig'ishtirish va shu singari ishlar maktabgacha katta yoshdagi bolalarda katta qiziqish uyg'otadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar birgalikda turmush tarzining o'ziga xos xususiyati – yurish turish va faoliyatga, uyushqoqlik va mustaqillikka talablarning muttasil oshib borishidir. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning uyushqoqligi qoidalarni bilishda, ularni bajara olish va guruhda belgilangan umumiy talablarga bo'ysunishda, birgalikda kuch g'ayrat sarflab umumiy maqsadga erishishga xarakat qilishda, o'zaro kelishish asosida xarakatlarni moslashtirish va vazifalarni taqsimlashda namoyon bo'ladi. Umuman olgan yurish turishning uyushqoqligi maktabgacha katta yoshdagi bolaga jamoadagi o'z rolini aniqlab olishga yordam beradi, bu narsa bolalar yurish turishiga sobitqadamlik bag'ishlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev. Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2016 yil 29 dekabr

2. Kushakova. G. Maktabgacha ёшдаги болаларни толерантлик руҳида тарбиялаш. Бола шахсини ривожлантиришнинг долзарб муаммолари. II – Халқаро илмий – амалий анжуманининг тезис ва мақолалар тўплами. Тошкент, 2008. –Б. 107-108

3. Usmonova. M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda xalq ertaklarining o'rni. Umumfilologik tadqiqotlar: muammo va yechimlar. Taniqli olim, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Bahodir Fayzullaevning 60 yillik yubileyiga bag'ishlangan ilmiy –amaliy anjuman materiallari. Jizzax -2011 yil. 218-219 bet

4. Норқўзиева. М. А. Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий барқарорлигини таъминлашда буюк сиймоларнинг роли. Мактабгacha таълим тизimini ривожлантиришда илмий-амалий инновацияларнинг педагогик аҳамияти

халқаро илмий-амалий конференция 2020 йил 11-12 ноябрь
Самарқанд, Ўзбекистон